

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PQ-388-son qarorining 6-ilovasiga asosan Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan budget xarajatlarining maqsadli indikatorlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha 2026-yil I-chorak ijrosi to‘g‘risida**

**HISOBOT**

№	Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi	O‘lchov birligi	2026-yil uchun jami	01.04.2026 holatiga			Izoh
				Ijro	Farqi	Foizda (%)	
	<b>Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilarni huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi</b>	<b>mlrd.so‘m</b>	<b>13,543</b>	<b>2,465</b>	<b>11,078</b>	<b>18,2%</b>	Qo‘mita markaziy apparati va Qo‘mita huzuridagi Markazda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari hisobiga uch oylikda yillik reja 18,20 foizga bajarilgan.
<b>Strategik maqsad: Tadbirkorlar va iste’molchilarga tovar va moliya bozorlariga kirish uchun teng sharoitlarni ta’minlash va raqobat cheklanishining oldini olish</b>							
<b><u>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</u></b>							
1.	Raqobat holati to‘liq tahlil qilinadigan tovar, moliya va raqamli bozorlar soni.	<b>dona</b>	<b>30</b>	7	-23	23,3%	<b>Qo‘mita tomonidan 2026-yilning 3 oyi davomida 63 ta tovar va xizmatlar bozorlari tahlil qilindi. Shundan, 7 ta bozorlar to‘liq (1-chorak rejasi 7 ta), 16 ta tovar va ish xizmatlarning bozorlarda muqobillari mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan va 40 ta mahsulot bilan to‘yinganligi bo‘yicha ekspress tahlillar o‘tkazildi.</b> Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan choraklik rejaga asosan ijro <b>100 foizga bajarildi</b> . Yil yakuniga qadar qolgan <b>23 ta bozorlar to‘liq tahlil qilinishiga erishiladi.</b>
2.	Ex-ante usulida raqobatga ta’siri baholanadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari soni.	<b>dona</b>	<b>550</b>	219	-331	40%	<b>Qo‘mita tomonidan 2026-yilning 3 oyi davomida Davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan loyiha.adliya.uz (project.gov.uz) portali orqali kelib tushgan 219 ta (1-chorak rejasi 110 ta) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini (ex-ante usulida) raqobat muhitiga ta’siri baholandi.</b>
<b><u>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</u></b>							
3.	Ko‘rib chiqilgan iste’molchilar murojaatlari soni.	<b>dona</b>	<b>32 000</b>	12 180	-19 820	38,1 %	Qo‘mitaga <b>2026-yilning 3 oyi davomida iste’molchilar tomonidan 13 622 ta murojaatlar kelib tushgan</b> . Shundan, 7 464 ta (54,8%) uy-joy kommunal va transport sohasi, 3 418 ta (25,1%) savdo va umumiy ovqatlanish sohasi, 2 350 ta (17,3%) foizi aloqa va ijtimoiy xizmatlar sohasi, 390 ta (2,9%) reklama va boshqa sohalarga to‘g‘ri keladi.

№	Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi	O'lchov birligi	2026-yil uchun jami	01.04.2026 holatiga			Izoh
				Ijro	Farqi	Foizda (%)	
							Qo'mita tomonidan <b>joriy yilning 3 oyi davomida</b> yuqoridagi iste'molchilardan kelib tushgan murojaatlarning <b>12 180 tasi (1-chorak rejasi 7 000 ta)</b> ko'rib chiqildi (8 751 tasi qanoatlantirish orqali, 1 883 tasi huquqiy ma'lumot berish orqali, 1 142 tasi tushuntirish berish orqali hamda 404 tasi 25-modda bilan tegishli idoralarga yuborish orqali hal etildi) va 1-chorak rejaga nisbatan <b>174,0 foizga</b> bajarildi.
4.	Reklama to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan monitoringlar soni.	dona	39 000	9 367	-29 633	24,0%	<p>Qo'mita tomonidan Reklama to'g'risidagi qonunchilik talablaridan kelib chiqib, tarqatilayotgan (joylashtirilgan) ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda va telegram messenjerida tashkil qilingan guruh va kanallarda, tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) reklamalarni joylashtirilishi va tarqatilishi bo'yicha jami <b>9 367 ta (1-chorak rejasi 9 250 ta)</b> o'rganishlar o'tkazilgan.</p> <p>Shundan, 8 622 tasi tashqi reklama axborot obyektlari (konstruksiyalari) hamda 745 tasi ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda va telegram messenjerlarida tashkil qilingan guruh va kanallarga to'g'ri keladi.</p>